



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 474 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlolova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarining mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinov	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	113
Mustafayeva Nilufar Ulashovna	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvaxon Xamidbek qizi	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
Quronova Ismigul Xolmurod qizi	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	126
Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari	139
Shukurova Sevara Ilhomovna	
Improving High Jump Techniques	143
Tajimbetov Anvar Tengeldayevich	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari	146
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников	149
Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari	157
Abduvaxobova Nodira	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari	160
Ismailova Nozima Umaraliyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati	164
Utanbayeva Dildora Abdixadirovna	
Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish	168
Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li	
Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari	171
To'raqulov Akbar Rustam o'g'li	
Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida	175
Temirova Muyassar Abdulkarim qizi	
O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish	180
Raximova Surayyo Otabek qizi	
Yoshlarni kasb tanlashda ruhiy tayyorgarlik va shaxsiy qobiliyatlarni baholash	183
Biysenov Temirbek Taumuratovich	
Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning ahamiyati	188
Choriyeva Surayyo Choriyevna	
Differences Between Computer-Based and Paper-Based Assessment in Inclusive Education	192
Davidova Sayyora Sirojiddin kizi	
Raqamli muhit sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining pedagogik modeli va tajriba-sinov natijalari	196
Donayeva Nozimaxon Norbo'tayevna	
Intellekt xarita yordamida o'quvchilarda "emotsional intellekt"ni rivojlantirish	201
G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda o'yin faoliyatining psixologik-pedagogik ahamiyati	206
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarishning nazariy asoslari	210
Mannanova Nargiza Xaydarovna	

Ingliz tilini o'rgatishda ona tilidan keng foydalanishning salbiy va ijobiy jihatlari	215
Masharipova Kumushoy Amin qizi	
The Relationship Between Critical Thinking and Reading Comprehension in Primary School Students	218
Mavlonova Dildora Shukhrat kizi	
Tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy metodlardan foydalanish	222
N. K. Musayeva, U. O. Ziyatova	
Singapurning ta'lim falsafasi: korporativ madaniyatni ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish bilan integratsiyalash ...	226
Nishonov Xayrulla Xolmirzaevich	
The Anthropocentric Paradigm in Modern Linguistics: Cognitive Linguistics and Linguacultural Studies in The Study of Language, Consciousness, and Culture	230
Rajabova Shaxlo Shodmonovna	
Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirishda nostandart yondashuvning ahamiyati	234
Ramazonova Salomat Saidovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash	238
Saidova Gulruh Halim qizi	
O'zbek oilalarida ota-ona va farzand munosabatlarini tashxis qilishning psixologik xususiyatlari (Farg'ona vodiysi misolida)	242
Turg'unboeva Azizaxon G'ulomovna	
Сущность и специфика развития билингвизма у детей дошкольников	246
Истамова Нигора Азимжановна	
Zamonaviy rahbarning innovatsion boshqarish texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari	249
Xakimova Dildora Mashrabjonovna	
Креативный подход к развитию лингвометодического мышления студентов-филологов	253
Ходжаниязова Айгуль Айтмуратовна	
Umumta'lim maktablarida tarbiya darslarini tashkil etish ijtimoiy zarurat sifatida	257
Rashidova Gulnoza G'ulomovna	
Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati	261
Xaydarov Sulaymon Amirqulovich	
Xronotop nazariyasiga tahliliy yondoshuvlar va qarashlar	265
Avazov Vahabjon Tolibjon o'g'li	
Ko'zi ojiz bolalarning rus tili darslarida nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning psixopedagogik asoslari	268
Abduraximov Asror Sultonali o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblar haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari	271
Adizova Nilufar Quvondiq qizi	
Zamonaviy media texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llashning zarurati	274
Alimov Asadulla Urokbayevich	
Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning ta'siri	278
Alimova Umida Jumaboy qizi	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi	282
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining rivojlanish tarixi va ommalashuvi	286
Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida raqamli resurslardan foydalanish orqali adabiy kompetensiyani rivojlantirish	289
Islomova Xafiza Azamatovna	
Ona tili o'qitish metodikasi fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish	293
Ismadiyorova Nafisaxon Ibroximjon qizi	
Axloqshunoslikning global muammolari va texnikaviy muhitning inson hayotiga ta'siri	298
Kozimova Nargiza Istam qizi	
Ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompetentlikni oshirish va baholash usullarining xalqaro tahlili	303
Mamatqulova Sanobar Ismatillayevna, Eshmurzayev Yigitali Shokirovich, Kadirova Durdonaxon Rustamovna	
Tabiiy fanlarda bilingval ta'lim va CLIL yondashuv	309
Mannobxonova Muqaddamxon O'ktamxon qizi	



Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pragmatik muammolar va ularning yechimlari	313
Maxmudova Nigoraxon Boyqo'zi qizi	
Poshshoxo'ja Ibn Abdurahobxo'janing "Miftoh ul-adl" asaridagi pedagogik qarashlari	317
Muzaffarova Farida Muxtor qizi	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida matn tushunishni shakllantirishda germenevtik metodlarning nazariy asoslari	321
Nazirova Shaxnoza Odinajon qizi	
Axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishda raqamli gigiyena va internet xavfsizligi	324
Ramazonov Jahongir Djalolovich	
Informatika fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar	328
Sadinov Otabek Vaxodirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijtimoiylashuvida musiqa fanining ta'siri	332
Shahobiddinova Zilola Orif qizi	
Madaniy-ijtimoiy va ta'limiy omillarning bolalarning aqliy rivojlanishiga ta'siri	335
Shirinov Otabek Tuvalovich	
Tadqiqot metodi vositasida o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish	338
Suyarov Kusharbay Tashbayevich	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasi va nutq madaniyati	342
Saipova Hilola Abduhamitovna	
"Ekologik ochiq o'yinlar" 5–7 yoshli bolalar uchun	346
Tangirov Zoir Xo'jakulovich	
Yuqori malakali taekvondochilarni o'ziga xos genetik xususiyatlarini hisobga olgan holda sport seleksiyasi	350
Tursunaliyev Ulug'bek Shavkatjon o'g'li	
Musiqa maktabi o'quvchilarida madaniy qadriyatlar va ustoz-shogird an'analarining uzluksiz rivojlanishi ..	353
Seytanov Bayrambay	
Imom Buxoriyning "Al-Jome' as-sahih" asari talabalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish omili sifatida	356
Abduhalimova Nigora	
O'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda AKT vositalaridan foydalanishning metodik asoslari	359
Abdullayeva Zarnigor Usubjon qizi	
Коммуникативная компетентность и культура общения преподавателей начальных классов	364
Арысланбаева Анора Бердаховна	
Проблемы методической подготовки учителей в развитие дискурсивной компетенции по РКИ у учащихся уровня В1 средних общеобразовательных школ Узбекистана	366
Набиева Зарнигор Муминжон кизи	
"Tarbiya" darslari orqali o'quvchilarda huquqiy savodxonlikni rivojlantirish	369
Atamuradov Xasan Yuldoshevich	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv ta'limga tayyorgarligi: pedagogik va psixologik asoslari	374
Baxromova Guljamol Dilshodjon qizi	
Tajriba metodlari orqali maktab o'quvchilarida tabiat hodisalarini bashorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish	378
Baxtiyor Imanov, Begali Xoliqnazarov	
Bo'lajak pedagoglarning tashkillashtiruvchi-boshqaruvchilik kompetentligini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari	384
Japparbergenova Indira Bayramovna	
Integrativ yondashuv asosida biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechish metodikasi	387
Jumanov Muratbay Arepbaevich, Raxmatov Uchkun Ergashevich	
Darslarni tashkil qilishda 4K modelini qo'llash imkoniyatlari	393
Kadirov Tulkin Baxridinovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga tasviriy faoliyatning noodatiy usullarini o'rgatish metodikasi	397
Maxmudova Nasiba Nurmuxammetovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlik tushunchasini ilmiy-pedagogik asoslash masalalari	406
Mirzaliyeva Gulhayo Abdulazizovna	

So'rovga asoslangan ta'lim texnologiyasining bosqichlari va qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish	410
Orifjonova Iroda Orifjon qizi, Ochilova Mehrubon Suratovna	
Dermatovenerologiya fanini CASC (Critisize, Analyze, Summarize, Conclude) modeli orqali o'qitish va uning talabalar klinik kompetentligini oshirishdagi o'rni	415
Po'latov Boburbek Ta'lat o'g'li	
Sport faoliyatida stress holatini tadqiq etishning nazariy asoslari.....	419
Ruzmatova Nigina Shotilla qizi	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kreativlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....	422
Uchqunova Adiba Roziq qizi	
7-sinf adabiyot darslarida nutqni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari tahlili.....	427
Umurova Farangiz Askarboy qizi	
O'zbek tilida fe'l birikmalarining pragmatik funksiyalari va ularning ingliz tili bilan qiyosi	430
Xudoynazarova Dildora Shonazar qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi.....	433
Zayniddinova Mahzuna Baxtiyorovna	
Фольклор и время: формирование речевых навыков у детей начальной школы	439
Ниязова Хилола	
Xalq o'yinlari – jismoniy va ma'naviy tafakkur omili	443
Turg'unoy Ahmadjonovna Egamberdiyeva, Ergashoy Valijonova Salimjon qizi	
Использование проектной деятельности для формирования языковой компетенции	446
Чаршамова Мехрийбан Уразбаевна	
Farzandlarni kelajak kasblariga tayyorlash.....	449
Hamroyeva Komila Axmatovna	
Talabalar analitik kompetentligini analitik-dagnostik pedagogik metodlar orqali takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	455
Batirov Kamoliddin Zuhriddinovich	
Universal ta'limiy faoliyatlar: shaxsga xos universal ta'limiy faoliyatlar	458
Abdullayev A'zimjon Abduvali o'g'li	
Kasbiy motivatsiya – bo'lajak o'qituvchilarning raqobatbardoshligini shakllantirish omili	461
Melikova Elnora Shuxratovna	
Shaxsning kompetentligi va uni shakllantirish omillari.....	465
Usmonova Dilobat Elmurodovna	
"Nutq o'stirish metodikasi" fanining didaktik asoslarini takomillashtirish.....	469
Davlatova Ra'no Haydarovna	



KASBIY MOTIVATSIYA – BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILI

Melikova Elnora Shuxratovna

Nizomiy nomidagi

O'zbekiston milliy pedagogika universiteti o'qituvchisi

Abstract: Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarning kasbiy-ijodiy salohiyatini rivojlantirishning dolzarb masalalari, zamonaviy kreativ mexanizmlar, pedagogik texnologiyalar va motivatsion yondashuvlar tahlil qilingan. Talabalarda kasbiy motivatsiya, ijodiy faollik va mustaqil fikrlashni shakllantirishning muhim jihatlari, shu jumladan, "tyutor-talaba" tizimi, e-learning va m-learning platformalari imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, pedagogning o'z-o'zini rivojlantirish jarayonida kasbiy muhim fazilatlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, motivatsion va refleksiv komponentlar asosida tahlil qilingan. Muallif ta'lim jarayonida kasbiy motivatsiyani shakllantirish va rivojlantirish orqali yuqori samaradorlikka erishish yo'llarini ilmiy asosda yoritib bergan.

Key words: kasbiy motivatsiya, ijodiy qobiliyat, pedagogik kompetensiya, o'z-o'zini rivojlantirish, bolajak o'qituvchi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, e-learning, m-learning, tyutor-talaba tizimi, refleksiv faoliyat, kasbiy fazilatlar, motivatsion yondashuv.

Annotatsiya: This article analyzes current issues of developing the professional and creative potential of future teachers in the higher education system, modern creative mechanisms, pedagogical technologies, and motivational approaches. Important aspects of forming professional motivation, creative activity, and independent thinking in students, including the possibilities of the "tutor-student" system, an e-learning platform, and m-learning, are highlighted. The pedagogical conditions for the formation of professionally important qualities in the process of self-development of a teacher based on motivational and reflexive components were also analyzed. The author scientifically illuminated the ways to achieve high effectiveness through the formation and development of professional motivation in the educational process.

Kalit so'zlar: professional motivation, creative abilities, pedagogical competence, self-development, future teacher, modern pedagogical technologies, e-learning, m-learning, tutor-student system, reflexive activity, professional qualities, motivational approach.

Аннотация: В данной статье анализируются актуальные вопросы развития профессионально-творческого потенциала будущих педагогов в системе высшего образования, современные креативные механизмы, педагогические технологии и мотивационные подходы. Освещены важные аспекты формирования у студентов профессиональной мотивации, творческой активности и самостоятельного мышления, в том числе возможности системы "тьютор-студент," платформ электронного обучения и м-леарнинг. Также проанализированы педагогические условия формирования профессионально важных качеств в процессе саморазвития педагога на основе мотивационного и рефлексивного компонентов. Автор на научной основе осветил пути достижения высокой эффективности посредством формирования и развития профессиональной мотивации в образовательном процессе.

Ключевые слова: профессиональная мотивация, творческие способности, педагогическая компетентность, саморазвитие, будущий учитель, современные педагогические технологии, э-леарнинг, м-леарнинг, тьютор-студенческая система, рефлексивная деятельность, профессиональные качества, мотивационный подход.

KIRISH

Jahon oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning kreativ mexanizmlari ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan. Bu borada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kasbiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'lim jarayonini modellashtirish, elektron axborot ta'lim resurslarini yaratish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, talabalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish, talabalarning "tyutor-talaba" tashkiliy-metodik yordam tizimini joriy etish, mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmogda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dunyoda oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ta'lim jarayonini mediatexnologiyalar asosida tashkil etish, kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tatqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu jihatdan, kasbiy muammolar, ilmiy farazlarni tekshirish, kasbiy muammolarni aniqlash, mustaqil fikrlash ta'lim strategiyalarini belgilash, kasbiy-ijodiy qobiliyatlarni uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish, differensial yondashuvni tashkil qilish, talabalar jamoasida hamkorlikni shakllantirishning kooperativ, o'quv-munozarali va mediatsiya (xolis xizmat muhiti ustuvor) ta'limini shakllantirish, e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda ta'lim tizimiga malakali raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash eng dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ko'pgina mutaxassislar ta'lim tizimidagi nomutanosibliklar, sifat va samaradorlikning talab darajasida emasligi, ob'ekt va sub'ekt o'rtasidagi munosabatlarning o'zaro ta'siri natijalarining qoniqarli emasligining asosiy sabablaridan biri kasbiy motivatsiyaning etishmasligi, ya'ni ta'lim oluvchida – o'rganish, o'qituvchida esa – o'rgatishda deb biladilar. Motivatsiya o'zi nima? Motivatsiya – bu insonning har qanday faoliyat orqali o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyati, inson xatti-harakatini boshqaradigan va uning tashkil etilishi, yo'nalishi, barqarorligi va faoliyatini belgilaydigan dinamik psixofiziologik jarayon ^[4]. Ta'limdagi bu muammo avvaldan bo'lib kelgan, biroq bugungi kunda sezilarli darajada zaiflashdi. Mazkur muammoning echimi ta'lim sohasining rivojida muhim o'rin tutadi.

Buning yechimini quyidagicha izohlash mumkin:

Birinchidan, vijdonan yondashish – eng asosiysi u xoh bilim olish, xoh o'rgatish bo'lmasin, oldiga qo'yilgan maqsadning to'g'riligiga ishonch hosil qilish, o'z tanlovining natijaviyligi, samaradorligi uchun har qanday sharoitda ham ortga chekinmaslik.

Ikkinchidan, pedagogning kasb tanlashda o'z oldiga qo'ygan maqsadi bevosita hayotining mazmuniga aylanishi lozim. Ya'ni, tanlagan kasbi orqali erishiladigan "o'sish" (karera) emas, balki o'z kasbining mohir ustasi, mutaxassisi hamda etuk shaxs sifatida tan olinishiga erishish, jamiyatning rivojlanishi hamda taraqqiyoti, shu jumladan, kelajak uchun foyda keltiradigan yo'nalishni tanlaganligi, ta'limning jamiyat oldidagi vazifalarni amalga oshirishda shaxsiy xissasini qo'shishga astoydil harakat qilishi muhimdir.

Uchinchidan, jamiyat uchun shu kasbga bo'lgan talabni nechog'lik muhim ekanligini oqlash maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchidan, kasb insonning rivojlanishi yo'lida bor kuchini olib qo'yishi, o'zining ruhan ezilishiga sabab bo'lmasligi lozim. Bunda pedagog ishdan keyin oilasiga, yaqinlariga vaqt ajratishi, eng asosiysi mustaqil shug'ullanishi va o'z-o'zini shaxsiy rivojlantirib borishi, shuningdek, hujjatlar, yangiliklar, innovatsiyalarni o'rganish, odamlar bilan ayniqsa, ta'lim olishga intilayotgan yoshlar bilan ishlash uchun vaqtini to'g'ri taqsimlay olishi kerak.

Beshinchidan, har qanday lavozimda, u qanchalik kichik yoki katta bo'lishidan qat'i nazar, inson muayyan maqsad vektorini amalga oshirishda yoki yaxshi tomonga yoki yomon xissa qo'shishini anglab etmog'i darkor. His-tuyg'ularini to'g'ri boshqara oladigan, hayotining mazmuniga aylanadigan kasbni tanlashda adashmagan pedagoglar jamiyatga foyda keltirishda ishonchi yanada oshish bilan birga, o'zi uchun salbiy oqibatlar kelib chiqishida sobitqadam bo'ladilar va o'zini o'zi himoya qila oladilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'limda o'quvchilarning ijodiy salohiyati va mustaqil fikrlashini rivojlantirish iste'molchini emas, balki yaratuvchi va ijodkorni tarbiyalashni taqozo etadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagogning o'zini-o'zi rivojlantirib borishi tahlil shuni ko'rsatadiki, o'z-o'zini rivojlantirib borish orqali kasbiy darajasini muntazam va jiddiy oshirish, doimiy ravishda takomillashtirib borishning talab qilinmasligi, vaqtning etishmasligi yoki to'g'ri taqsimlanmasligi, motivatsiyaning etarli darajada emasligi, o'qituvchining kasbiy jihatdan muhim fazilatlariga bo'lgan talablar to'g'risida bilimlarni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik shart-sharoitlar majmuini belgilaydigan malaka oshirish jarayonining mazmunini ishlab chiqilmaganligi ta'lim sohasida uzilishlarni kuzatishga sabab bo'lmoqda.

Mazkur muammolar bugungi kunda pedagogning muhim kasbiy fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan o'z-o'zini rivojlantirish jarayonining modelini ishlab chiqish zaruratini tug'dirmoqda. Bu esa "pedagogning kasbiy jihatdan muhim fazilatlarini"ni konsepsiyasi mazmunini ishlab chiqish, pedagogik yo'nalish va pedagogik refleksni o'qituvchining integral kasbiy muhim fazilatlarini sifatida tavsiflash, o'z-o'zini rivojlantirish jarayonida ularning rivojlanish shartlarini belgilab berish kabi vazifalarni yuklaydi. Pedagoglarning kasbiy muhim fazilatlarini rivojlantirish, agar malaka oshirish sharoitida amalga oshirilsa, o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish jarayoni pedagogik yo'nalish, pedagogik kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi.



O'z-o'zini tarbiyalash, o'qituvchining professional va shaxsiy o'z-o'zini takomillashtirish bo'yicha ongli maqsadli faoliyati sifatida pedagogni o'z-o'zini boshqarishning yuqori darajasiga olib chiqishga yordam beradi: haqiqatga nisbatan noaniq, tanqidiy bo'lmagan munosabat darajasidan hayotning yangi darajasiga – pedagog faoliyatining mohiyatini o'zgartiradi.

O'qituvchining professional jihatdan muhim fazilatlarini rivojlantirishga qaratilgan o'z-o'zini tarbiyalash motivatsion, bilim va refleksiv sharoitlarni ta'minlaydigan maxsus ta'lim muhitini talab qiladi. Shartlarning motivatsion komponenti kasbiy va shaxsiy o'sishni rag'batlantirishni o'z ichiga oladi; kognitiv komponent o'z-o'zini tarbiyalash jarayonini professional jihatdan muhim fazilatlariga bo'lgan talablar, o'qituvchilarning zamonaviy psixogramma tadqiqotlari sohasidagi xabardorligi haqidagi bilimlarni shakllantirishga yo'naltirishdan iborat; refleksiv komponent o'z-o'zini baholashni ta'minlaydigan, pedagog o'z ishining samaradorligini o'z-o'zini tahlil qilish jarayonida professional muhim fazilatlarini rivojlantirish darajasi.

Kasbiy muhim fazilatlarini rivojlantirish uchun qulay muhit, bunday rivojlanishga yo'naltirilgan malaka oshirish jarayonida, shuningdek, o'zi faoliyat olib borayotgan ta'lim muassasasida o'qituvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash jarayonini tashkil etish orqali shakllantirilishi mumkin. Pedagogning kasbiy jihatdan muhim fazilatlarini rivojlantirish o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida amalga oshirilishi mumkin – pedagog ongli ravishda, mustaqil va g'ayratli tarzda yangilanadigan pedagogik faoliyat turlaridan biri kasbiy mahoratning istalgan darajasiga erishish uchun mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirishi, shuningdek, kasbiy va shaxsiy o'sishi uchun muhim fazilatlarini rivojlantiradi.

Agarda aniq maqsad va natijalar belgilangan bo'lsa, motivatsiya manbalari o'quv faoliyatiga ijobiy munosabatni paydo qiladi [3:127b]. Tadqiqot davrida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy motivatsiya ta'lim jarayonlarida rivojlantiriladi. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy motivatsiyani rivojlantirishda ularning qiziqishlari va moyilliklarini inobatga olish lozim. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy motivatsiya shakllanishi natijasida kasbiy kompetensiya ham rivojlanadi. Ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlash uchun ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchida o'z faoliyatini muvaffaqiyatli bo'lishiga yuqori darajada ishonch motivatsiyani oshirish lozim. Shuningdek, talabalarda shaxsiy muvaffaqiyatga erishishga harakat qilish va ma'suliyatni o'z qo'lga olish ko'nikmasini ham tarbiyalab borish zarur. Talabalarda kasbiy motivatsiya turli motivlar negizida shakllanadi. Kasbiy sohaga oid motivlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- maktab ta'lim sohasi bo'yicha bilim olishga intilish;
- pedagogik faoliyatida muvaffaqiyatga erishish yo'llarini puxta egallash;
- pedagogik mahorat va shaxsiy fazilatlariga ega bo'lish.

Mazkur komponentlar kasbiy faoliyatni tashkil etishning asosi hisoblanadi.

Bularning barchasi talabalarining kasbga qiziqishi bilan bog'liq bo'lib, o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishda yutuqlarni egallash va kasbiy faoliyatida ijod qilishga intilishni ta'minlaydi. Shaxsiy motivlar talabalarda kasbiy faoliyatida o'z o'rniga ega bo'lish va o'zini o'qituvchilik kasbiga bag'ishlashga undaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Talabalar jamoada va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish, tashkilotchilik va rahbarlik qilish qobiliyati, shaxsiy hatti harakatlarini namoyon etishga harakat qiladilar. Shuningdek tanlagan kasbga qiziqishi ortadi, intellektual jihatdan dunyoqarashi kengayadi, ijodiy faoliyat yuritishga harakat qiladi. Shaxsiy motivlar ta'lim mazmuni bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Talabalarni faol o'qishga yo'naltiradi. Amaliy motivlar ish harakatda namoyon bo'ladi, talabalar o'z bilimi va tajribasiga tayanib amaliy mashg'ulotda nazariy bilimlarini mustahkamlaydilar. Natijada turli hayotiy vaziyatlar, pedagogik faoliyatida duch keladigan muammolarni hal etish ko'nikma va malakalari shakllanadi. Talabalar pedagogik amaliyotda o'qituvchilik kasbiga oid muhim jihatlarni o'zlashtiradilar. Bundan tashqari ijtimoiy motivlar ham mavjud bo'lib, talabalarni oliy ma'lumotli shaxs sifatida jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish, ijtimoiy tan olinish, jamiyat ravnaqi uchun hissa qo'shish, fuqarolik burchini his etishga undaydi. Oliy ta'lim jarayonida kasbiy motivatsiyani shakllanishida o'quv-tarbiyaviy jarayonda turli metod, texnologiya va vositalarni samarali qo'llanilishi talabalarda faollikni uyg'otadi, amaliy ko'nikmalarni egallashlariga yordam beradi. Bugungi kunda zamonaviy pedagoglarga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi ham talabalarni maktabga samarali tayyorlashdir. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilarda shaxsiy va kasbiy kompetensiya etarli darajada shakllangan bo'lishi lozim.

Kasbiy motivatsiya kasbiy kompetensiyani shakllanishiga zamin yaratadi. Kasbiy ehtiyoj talabalarni tanlagan kasbga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Kognitiv faoliyat esa maktabga oid nazariy-metodologik bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga yo'naltiradi. Refleksiv faoliyat o'z-o'zini va kasbiy imkoniyatlarini tahlil qilish hamda takomillashtirishga harakat qilishga undaydi. Mazkur omillar ta'sirida bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy sifatlar hamda umuminsoniy qadriyatlar, bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o'z Vatani va oilasiga bo'lgan



muhabbat shakllanadi. Shuningdek, maktabga oid puxta bilimga ega bo'lish talab etiladi. Maktab sohasiga oid mustahkam bilimga ega bo'lish bolalarni maktabga tayyorlashdagi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchidan o'z kasbi va sohasi bo'yicha jahon fanida erishilgan so'nggi yutuqlar rivojlangan davlatlar tajribasidan xabardor bo'lish taqozo etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Har qanday kasbni egallash, nafaqat egallash, balki uni mahorat bilan amalga oshirishda faoliyatning barcha qonuniyatlari va mexanizmlariga amal qilish juda muhimdir. Oddiygina biror kasb malakasini egallash uchun ham unga aloqador bo'lgan ma'lumotlarni eslab qolish va kerak bo'lganda yana esga tushirish orqali uni bajarish emas, balki ham ichki (psixik), ham tashqi (predmetga yo'naltirilgan) harakatlarni ongli tarzda bajarish bilan bog'liq murakkab jarayonlar yotishini unutmasligimiz kerak. Ammo, har bir shaxsni u yoki bu faoliyat turi bilan shug'ullanishiga majbur qilgan psixologik omillar sabablar mavjud bo'lib, bu faoliyat motivlaridir. Psixologiya fanida shaxsni aqliy, amaliy harakatga va hulq-atvorni amalga oshirishga undovchi, muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan uzviy bog'liq sababiyat motivlar deb ataladi.

Talabalardagi kasbiy faoliyatga motivatsion tayyorgarligi tizimiga shakllantiruvchi element roli berilganligini ko'rsatadi. Hozirgi bosqichda motivatsiyaga tayyorlik muammosining dolzarbligi, boshqa qadriyatlar qatorida, talabalarning raqobatbardoshlikga intilishlarini shakllantirishda ta'limga kompetensiyaviy yondashuvni kiritish bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" T.; O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" 2017.
3. Семина Е.А. (2010). Компетентностная модель выпускника педагогического вуза - будущего учителя математики. Алманах современной науки и образования. - № 5 (36). - С. 133-135.
4. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. (2013). Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: Fan va texnologiya nashriyoti.
5. Митина Л.М. (2004). Психология труда и профессионального развития учителя. - М.: Академия. - 320 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.